



ONLAYN MATERIALLARNI TAYYORLASHDA MANBALARDAN FOYDALANISH

Dadaxon Raimboyev

qoraqalpoq filologiya va jurnalistika
fakulteti 4-bosqich talabasi

Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969195>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 02nd July 2022

KEY WORDS

*onlayn, global, gazeta,
internet, media.*

ABSTRACT

Ushbu maqola onlayn jurnalistikada saytlarning ko'rinishi, tuzilishi va undagi ma'lumotlarning berilishi haqida yozilgan

Internet soʻzsiz axborotlarning ulkan xazinasidir unda millionlab insonlar ma'lumot qoldiradi va yana millionlab insonlar ular bilan bo'lishadi. Jurnalistlar vazifasi ana shu ulkan axborotlar ummonidan kerakli ma'lumotni topa bilishdir. Ko'p hollarda bu jurnalistlar doim amalga oshiradigan manbalar bilan ishlash jarayonidan telefon orqali o'zaro muloqotlar orqali tarixiy arxivlar va hokazo kabi odati jarayonlardan hech farq qilmaydi. Ammo bu kabi axborot manbalarining ayrimlari bugun eskidir. Internet bugun nafaqat oliy reportyorlar uchun balki turli mediya vakillari bosma televideniye radio jurnalistlar uchun axborot manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bugun har bir tahririyat kundalik yumush orasida internetga kirib faktlarni tekshirish ma'lum axborot uchun qo'shimcha ma'lumotlarni topish ularni boyitishga xizmat qiluvchi raqamli axborotlarni topish jarayonidadir. Internet jurnalistlari uchun internet manbalari muhim bir bo'g'in sanaladi.

Negaki aynan manbalarning o'zlari ham materialning bir qismiga aylanadi. Bo'lajak jurnalistlar o'quvchilariga manbalarga giperhavolalarni taqdim etadilar va o'z navbatida ularga axborot bilan kengroq tanishish imkoniyatini yaratadilar. Buni to'ldirishi mumkin yaxshi jurnalistlar doimo manbalaridan iqtiboslar keltiradi jurnalistlarni ma'lumotlarni berishi o'quvchilarning o'zlariga ushbu manbalar bilan tanishish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin. Aynan ushbu xususiyat ularni jurnalistikani boshqa an'anaviy jurnalistik faoliyat turlaridan ajratib turuvchi xususiyati sanaladi. Bu reportyorlikning boshlang'ich malakasiga tegishli ma'lumotlar emas aksincha onlayn muhbirning mahoratini oshirishga qaratilgan ko'nikmalar bo'ladi. Bu yerda kompyuterga asoslangan jurnalistlik faoliyat borasida gapirib materiallarni boyitishga xizmat qiluvchi axborot manbalari bilan ishlashning samarali usullari borasida to'xtab dastavval email



va forumlarning jurnalistik axborot manbalari sifatidagi o'ziga xos jihatlari o'rganadi. Undan so'ng internetda axborot manbalari saralash ajratish va klassifikatsiya qilish orqali ma'lumotni yoritishda muvaffaqiyatga erishish nazarda tutiladi. Internet muxbir uchun axborot manbai sifatida internetdan ma'lumot olish jurnalistning telefon orqali axborot izlash kabi jarayonida ko'rinishi mumkin. Unda ham bunda ham muxbir telefon raqamini bilgani holda kimga murojaat qilishni aniqlash nima savol berishni anglashi olingan ma'lumotlarni materialida qay tarzda ishlatilishini bilishi kerak va internetdan ma'lumotlarni izlash bu boshqa manbalardan ma'lumotlarni topish bilan birdek boshlanadi. Eng muhim savol bu jarayonda shuki menga kerakli axborot kimda bor ushbu ma'lumot manbai onlayn bo'lishi yoki bo'lmasligi ham mumkin. Internet odatiy axborot manbalarini o'rnini bosadi deyish uchun u ma'lum darajada axborot manbalari bilan ishlashda yangi usullarni taqdim etadi ba'zan hatto manbalardan topish mushkul bo'lgan ma'lumotni an'anaviy axborot manbalaridan kengroq olish mumkin. Axborot agentligining elektron xizmatidan samarali foydalanish bo'yicha yuritgan MCHBQ.com alohida paragraf aynan internetdan foydalanishga bag'ishlangan paragrafdan real professional hayotdan olingan tavsiyalar keltiriladi. Masalan unda aniqlik borasida juda

jiddiy yondashgan internet avtoritet emas u shunchaki vosita undan olingan manbaga tayanishdan avval uning aniqligiga amin bo'ling. Sizda bir qancha internet saytlari va elektron pochta manzillari berilgan bo'lishi mumkin hech qachon ularni aniqlanmasdan unga yo'llanma bermang. Doim avval ularni tekshiring faqat shundan keyingina uni materialning izga keltirishingiz o'rinli deyilgan. Internet axborot tarqatish borasida tezkor ommaviy axborot vositasi bo'lishi bilan birga yolg'on haqqoniy bo'lmagan formati axborotlarni tarqatish uchun ham tezkor xizmat qilishi mumkin. Masalan Amerika yumoristik saytlarining birida bir badiiy filmining nomi kulgili va haqiqatga mos bo'lmagan holda hatto tarjima qilingan tizimi yordamisiz buni e'lon qilgan. Shundan keyin bu xabarni tarqatgan materialdan xatoliklar radio efirida ham chiqqan shu tariqa axborot to'xtamasdan keng tarqalib ketavergan. Jurnalistik saytlar o'tgan tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki qayta chop etish bu hali jurnalistik emas doim bir joyda o'tirgan holda axborot yetkazish boshqa bilimlar asosida ma'lumotni shakllantirish va uni yoritish bu faqat bir uslubni chop etishdan avval tahririyatning o'zi ushbu ma'lumotni tekshirishi lozim toki o'sha yolg'on axborot aylanasiga tushib qolmaslik uchun.